

## O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA PERIFRASTIK BIRLIKLER TADQIQI

**Latipova Dildora Komiljon qizi**

BuxDU, Filologiya fakulteti

Lingvistika: O'zbek tili ta'lim yo'nalihi 2-kurs magistranti

### **ANNOTATSIYA:**

Maqolada o'zbek tilshunosligida perifrazalar bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar haqida fikr yuritilgan bo'lib, ularning amaliy va nazariy jihatlari xususida so'z borgan. Shuningdek, hunarmandchilik sohasining milliy an'ana va qadriyatlarimizni shakllantirishdagi o'rni va amaliy ahamiyati, shu sohada qo'llanuvchi perifrazalar ham tahlilga tortilgan bo'lib, perifrazalar nutqning ta'sirchanligi, badiiyligini ta'minlovchi uslubiy vositalardan biri ekanligi asoslanilgan.

**Kalit so'zlar:** ilm-fan, R.Qo'ng'urov, A.Hojiyev, M.Mirtojiyev, S.Shodiyev, H.Shamsiddinov, hunarmandchilik, lingvistika, til, tilshunoslik, tafakkur, perifraza, an'ana, qadriyat.

Ilm-fan taraqqiyotida turli sohalarning integratsiyalashuvi tildan amaliy foydalanishning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Lisoniy birliklarning nazariy asoslari bilan emas, balki ularning nutqiy ifodasi, mazmun-mohiyati, pragmatik va psixologik xususiyatiga e'tibor tobora kuchaymoqda. Bu esa amaliy tilshunoslik tarkibida jamiyat farovonligini ta'minlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan, inson omilini ulug'lashni vazifasi deb bilgan qator yo'nalichlarning shakllanishiga sabab bo'ldi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar tufayli til va xalq madaniyati yuksalishi yanada kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda o'zbek tilshunosligi muammolarini jahon tilshunosligida erishilgan yutuqlar asosida chuqur hal qilishga e'tibor ortmoqda.

O'zbek tilshunosligida perifraistik birliklarni o'rganish XX asrning 90-yillaridan boshlangan. O'zbek tilshunosligida ko'chim turi sifatida perifrazani o'quv qo'llanmasiga olib kirgan tilshunos olim R.Qo'ng'urov 1983-yilda nashr etilgan "O'zbek tili stilistikasi" qo'llanmasida: "...kishilarning otlarini yoki boshqa predmetlarning nomini to'g'ridan-to'g'ri gapirmsandan, ularni turli xil so'z yoki tasviriy iboralar vositasida bayon qilish perifraz deyiladi. Bu termin perifraza, parafraz, parafraza deb ham yuritiladi" [26], deb ta'riflaydi.

A.Hojiyevning "Lingvistik terminlarning izohli lug'ati"da quyidagicha izoh keltirilgan: "Narsa, hodisani o'z nomi bilan emas, tasviriy usul bilan ma'lum kontekst,

situatsiyadagi xarakterli belgi-xususiyati orqali ifodalaydigan stilistik priyom. Masalan, dala malikasi, (makkajo‘xori)” [22] kabilar.

O‘zbek tilshunosligida perifraza xususidagi ilmiy va nazariy ma’lumot, asosan, M.Mirtojiyevning tadqiqotlarida kuzatish mumkin. Tilshunos olimning ta’kidicha: “Perifrazalar ma’lum bo‘lagi yoki bo‘laklari ko‘chma ma’noda bo‘lib, ular ma’nosini sintezidan tashkil topgan, bir tushunchani bildiruvchi lug‘aviy birlikdir. ...perifraza holida maqom olgan birikmada, garchi semantik qayta bo‘linish kechgan bo‘lsa ham, unda sintaktik qayta bo‘linish kuzatilmaydi” [23, 24]. O‘zbek tilshunosligida perifrazaga bag‘ishlangan ilk maqola H.Shamsiddinov tomonidan e’lon qilingan. Maqola muallifi o‘zak masala – perifrazaning frazeologizm bilan umumiyligi va xususiy jihatlari haqida fikr yuritgan o‘rinlarda perifrazaning predmet-hodisani qayta nomlash, frazeologizmning esa belgini, holatni va harakatni qayta nomlashini dalillaydi hamda perifraza ham frazeologizmlar kabi til fakti sifatida tan olinishi lozimligini uqtiradi [28].

I.E. Umirov “O‘zbek tili perifrazalari” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida o‘zbek tili perifrazalarini ilk marta monografik planda ilmiy-nazariy jihatdan atroflicha o‘rgandi [27]. Tadqiqotda perifrazalarga, asosan, nutqiy hodisa sifatida qaradi va perifrazalarni quyidagi turlarga ajrtib tahlil qildi. Jumladan:

a) hosil bo‘lish usuliga ko‘ra: leksik perifraza, frazeologik perifraza, sintaktik perifraza, logik perifraza, sof va kontekstual perifraza;

b) semantikasiga ko‘ra: mualliflik ma’nosini ataydigan perifraza, kasb-kordagi mahoratni anglatadigan perifraza, shaxsning jamiyatda tutgan o‘rnini anglatadigan perifraza, ijodkor asaridagi biror g‘oya va mavzuni bildiradigan perifraza, san’at namoyandalari yaratgan o‘lmas obrazlarni bildiradigan perifraza, muassasa va muayyan joylarni anglatadigan perifraza, suyuqlik va texnika predmetlarini anglatadigan perifraza, tabiat hodisalari va o‘simgiliklarni anglatadigan perifraza, jonivor nomlarini anglatadigan perifraza, shaharlarni ifodalaydigan perifraza. I.E.Umirov o‘zi ajratgan turlarning tabiatini, mohiyatini ochib berishga harakat qilgan. Shuningdek, perifrazalarning kasb-hunar leksikasi, evfemizm, frazeologizm, sinonim, epitet, metafora (badiiy metafora), metonimiya, sinekdoxa, funksional ko‘chish kabi lisoniy hodisalarga munosabati ham mazkur tadqiqotda batafsil yoritilgan.

S.Shodiyev “Parafrazalar va ularning derivatsion xususiyatlari” [29] nomli maqolasida ayrim jo‘yali mulohazalarni bildirib o‘tadi. Tadqiqotchi talqinida perifrazalar qismlarining sintaktik aloqasi statik xarakterli bo‘lgani uchun ular turg‘un so‘z birikmalari qolipida o‘rganilishi lozim. Bunday birikmalarning sintaktik shalkllanishi muayyan tushunchalarning nutqdagi ta’sirchanligini oshirish maqsadi bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Boshqacha aytganda, ma’lum bir lug‘aviy birlik shu maqsadda, shu kontekstda boshqacha nomlanadi. Masalan, dala malikasi, aql

gimnastikasi perifrazalari makkajo‘xori, shaxmat yoki matematika tarzida tilimizning lug‘at tarkibida mavjud bo‘lgan so‘zlarning nutqda boshqacha nomlar bilan aytilib, mazmuniy salmog‘iga ko‘ra ta’sirchanligini oshirish uchun xizmat qiladi. D.Aytboyevning “O‘rin-joy bildirgan perifrazalarda motivlashuv”, “Konkret shaxslarni anglatuvchi perifrazalarda motivlashuv”, “Sarlavhada perifrazalar” kabi maqolalarida shaxs nomlarini, o‘rin-joy nomlarini ifodalovchi perifrazalarning mavjudligi va ularning sarlavhaga chiqarilishi bilan bog‘liq tomonlariga e’tibor qaratgan [19, 20, 21].

U.Ahmadova “Perifrazalarning sotsial xususiyatlari” nomli monografiyasida “Perifrazalar uslubiy vosita sifatida nutqqa ko‘tarinkilik, obrazlilik baxsh etadi, jamiyat taraqqiyoti talablaridan kelib chiqib, lug‘at tarkibini boyitib boradi. Nutq jarayonida takrorlardan, qaytariqlardan qochish imkonini beradi, notiqni so‘zamollikka, tinglovchini esa falsafiy mushohada etishga undaydi” [18]. Shuningdek, perifrazani “Murakkab tabiatli hodisa” [18] sifatida baholaydi.

O‘zbek tilshunosligida Umidaxon Ahmadova “Publitsistik uslubda perifrazalar” magistrlik dissertatasiyasida publitsistik uslubda qo‘llangan perifrazalarni yig‘ib tahlilini amalga oshirgan. Shu asosida Abuzalova M.Q., Ahmadova U.Sh. hammuallifligida “Publitsistik tasviriylarining qisqacha izohli lug‘ati” yaratilgan. Shu yo‘nalishda qator maqolalari e’lon qilingan. Abuzalova M.Q., Ahmadova U.Sh. “Perifrazalar va unga yondosh hodisalar xususida” (2020), Ahmadova U.Sh. “Perifraza turlari va ularning matndagi o‘rni” (2020), “Publitsistik uslub perifrazalari xususida” (2017), “Pedagog nutqida perifrazalar”, “Перифразы в узбекском языке” [13] (2020), “Kitlesel bilgi araçlarında perifrazların ifade edilmesi” [14] (2020), “Differentiation of periphrases by gender classification” [15] (2020), “Ommaviy axborot vositalarida tasviriylarining o‘rni” [3] (2015), “Publitsistik uslubda shaxs nomlarini ifodalovchi tasviriylarining o‘rni” [4] (2016), “Publitsistik uslubda o‘rin-joy nomini ifodalovchi tasviriylarining o‘rni” [5] (2016), “Matbuot tilidagi perifrazalarda sinonimlik” [7] (2017), “Badiiy uslub va tasviriylarining o‘rni” [9] (2018), “Axborot globallashuvida perifrazalarning o‘rni” [10] (2019), “Tibbiyot xodimlari nutqida perifrazalar” [16] (2020) kabi qator maqolalarida perifrazalarning publitsistik, sotsial, ijtimoiy-kasbiy, milliy-etnik jihatdan tahlilarini amalga oshirib, nazariy jihatdan yoritgan.

Keyingi yillarda M.Q.Abuzaeva ilmiy rahbarligida Ahmadova U.Sh. “Perifrazalarning sotsial xoslanishi” [17] mavzusida nomzodlik dissertatsiyani yaratdi. Unda o‘zbek tili sotsial perifrazalari uchun xos bo‘lgan materiallar to‘planib, mavzuviy guruhlari belgilangan, milliy-etnik xususiyatlari, jins belgisiga, kishi yoshiga ko‘ra farqlanishlari, ijtimoiy-kasbiy tasnifga ko‘ra turlari lisoniy xususiyatlari ochib berilgan. A.Qobilovaning “Tibbiy perifrazalarning lingvomadaniy xususiyatlari (ingliz

va o‘zbek tillari misolida)” [25] nomzodlik dissertatsiyasida ingliz va o‘zbek tillari tibbiy perifrazalarini lingvomadaniy tahlil doirasida sotsiomadaniy, kontekstual-diskursiv, ijtimoiy-psixologik, funksional aspektlarda yoritib berilgan.

Ta’kidlash joizki, perifraza nutqning rang-barangligini, badiiyligini ta’minlovchi uslubiy vosita bo‘lib, u tilning nomlash ehtiyoji mahsuli emas, balki ifoda ehtiyoji mahsulidir. Chunki u o‘z nomiga ega bo‘lgan predmet-hodisani qayta nomlaydi. Mazkur xususiyatga bog‘liq holda perifraza nutqda ham nominativ, ham estetik, ham badiiy vazifa bajaradi.

Umuman olganda tilshunoslik ilmida perifrazalarni sotsial jihatdan o‘rganish va tadqiqini davom ettirish mumkin. Chunki istalgan jamiyatda tilshunoslik ilmida har bir soha nutqini o‘rganish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu jumladan, hunarmandlar leksikasi boy til sanaladi. Unda nafaqat milliylik omili balki, o‘zbek xalqining, istalgan bir xalqning eng qadimgi davrlarga borib taqalishi xususidagi ma’lumotlarni olish mumkin. O‘zbek tili leksikasining imkoniyatlari kengroq ekanligini o‘z sohasida qo‘llangan terminlarda asoslaydi. Adabiy tilni jonli tilga yaqinlashtiradi. Xalqdan olib, uni boyitib, sayqallashtirib xalqga beradi. Hunarmandlar tili nutq madaniyatini, lingvokulturologiyani rivojlantirishga zamin hozirlaydi. Uzoq ming yillik tariximizni, ma’naviyat-u madaniyatimizni o‘zida jonli aks ettiradi. Xalqona an’ana va urf-odatlarimizni bag‘rida asraydi. Shuning uchun ham hunarmandlar leksikasini o‘rganish, lingvistik jihatdan tahlil qilish tilimiz uchun samara beradi.

Mana shu soha vakillarining nutqida qo‘llangan perifrazlar ham anchagina bo‘lib, tilni boyitish va jamiyatni taraqqiy toptirish uchun xizmat etadi. Ularning leksikonidagi birliklar ham o‘zbek tili leksikografiyasini to‘ldirishda hissa qo‘shadi. Jumladan:

Ip va ignalar xonimi – tikuvchi

*Tikuvchi ishi ishchi ish vaqtining ko‘p qismini tikuv mashinasida o‘tirgan holda o‘tkazadi deb taxmin qiladi, shuning uchun “ip va ignalar xonimi” qat’iyatlilik, sabr-toqat va tirishqoqlikka ega bo‘lishi kerak* (So‘zlashuvdan).

Mohir yordamchi – tokli mashina

*Mohir yordamchisiz kiyim-kechak tikish, buyumlarni bezash (choklar hosil qilib naqsh tushirish), ularni qavish va boshqa maqsadlarda foydalanish tokli mashinasiz ancha murakkab* (So‘zlashuvdan).

Tikuv quroli – igna

*Ignas, nina – tikuvchilik, trikotaj ishlab chiqarish, matbaa va boshqalarda keng ishlatiladigan tikuv quroli hisoblanadi* (Muslima Hamroyeva nutqidan).

Tikuvchining o‘ng qo‘li – qaychi

*Qadim zamonlardan beri tikuvchining ish qurollari igna, tikuvchining o‘ng qo‘li qaychi bo‘lib, 19-asrdan boshlab tikuv mashinasi tobora ko‘proq foydalanila boshlandi (Hunarmandlar ko‘rsatuvidan).*

Barmoq himoyachisi – Angishvona

*Kiyim-kechak, ko‘rpa-yostiq tikishda barmoqlarga igna sanchilmasligi va ignani qalinroq gazlamadan o‘tkazishda barmoq himoyachisi ishlataladi (So‘zlashuvdan).*

Qadash vosita – tugma

*Qadash vosita tanlashda albatta shakliga va xususiyatiga e’tibor berish kerak. Tugmalar turli materiallardan (yog ‘ochdan, plastmassadan, temirdan, alyuminiydan, kauchukdan, matodan, suyakdan) tayyorlanadi, uning*

*shakllari turlichcha (to‘rtburchak, uchburchak, doira) bo‘ladi va tugmada bir qancha teshiklar (ikkita, to‘rtta, baldoqli) bo‘lishi mumkin (Mohir qo‘llar ko‘rsatuvidan).*

O‘rgimchak to‘ri – yelim

*Tikuvchilar ko‘ylakni bir-biriga ulayotganda asosan o‘rgimchak to‘ridan foydalanishiadi (So‘zlashuvdan).*

Ko‘rinadiki, tikuvchilik kasbi perifrazalarini uzoq davom ettirish mumkin. U har bir bergen bezagiga, naqshiga, har bir toshiga, rangiga qarab o‘z san’at asarini yaratadi va unga mehr qo‘yadi. Tikuvchi istalgan turdagи matodan yangi bir asar yaratadi. Qadimdan ma’lumki, gazlamalar turlichcha bo‘lib, turfa maqsadlarda joyiga qarab liboslar kiyilgan.

Xulosa sifatida ta’kidlash joizki, hunarmand nutqida yoki sohasida til birliklaridan ya’ni ekspressivlikka boy so‘zlar, perifrazalar, tasviriy ifodalardan foydalanish orqali mahsulotni xaridorgir qilish, diqqatni tortish, milliy an’ana va urf-odatlarni tarannum etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Natijada lingvomadaniy vosita sanalgan perifraza yordamida o‘zga yurt vakillari o‘zbek xalqining madaniyati, tarixi bilan tanishishni istaydi. Perifraza nutqning rang-barangligini ta’minlovchi uslubiy vosita sanaladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Abuzalova M.Q., Ahmadova U.Sh. Publitsistik tasviriy ifodalarning qisqacha izohli lug‘ati. – Toshkent: Navro‘z, 2016. – 37 b.
2. Абузалова М.Қ., Аҳмадова У.Ш. Перифразалар ва унга ёндош ҳодисалар хусусида // Сўз санъати халқаро журнали. ISSN: 2181-9297. Doi Journal 10.26739/2181-9297. – Тошкент, 2020. № 6. – Б. 76-81.

3. Ahmadova U.Sh. Ommaviy axborot vositalarida tasviriy ifodalarning o‘rni // Филология масалалари // Илмий-методик мақолалар тўплами. –Тошкент: Наврўз, 2015. – Б.184-186.
4. Ahmadova U.Sh. Publitsistik uslubda shaxs nomlarini ifodalovchi tasviriy ifodalar // Тафаккур ва талқин. – Бухоро, 2016. – № 5. – Б.22-24.
5. Ahmadova U.Sh. Publitsistik uslubda o‘rin-joy nomini ifodalovchi tasviriy ifodalar // Тилнинг лексик-семантик тизими, қиёсий типологик изланишлар ва адабиётшунослик муаммолари. – Тошкент: Наврўз, 2016. – Б.475-477.
6. Ahmadova U.Sh. “Publitsistik uslubda perifrazalar”. Magistrlik dissertatsiyasi. Buxoro. 2017. – В. 88.
7. Ahmadova U.Sh. Matbuot tilidagi perifrazalarda sinonimlik // «Lison ilmining chin yalovbardori» mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy anjuman materiallari. – Toshkent: Navro‘z, 2017. – В. 81-83.
8. Ahmadova U.Sh. Publitsistik uslub perifrazalari xususida // Бухоро университети илмий ахборотлари. – Бухоро, 2017. – № 2. – Б. 96-100.
9. Аҳмадова У.Ш. Бадиий услуб ва тасвирий ифода // Филология ва методика масалалари. – Тошкент: Наврўз, 2018. – Б. 67-69.
10. Ahmadova U.Sh. Axborot globallashuvida perifrazalarning o‘rni // Tilshunoslik va metodika masalalari. – Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2019. – В. 44-46.
11. Аҳмадова У.Ш. Перифраза турлари ва уларнинг матндаги ўрни // Тил, таълим, таржима халқаро журнали. ISSN: 2181-0796. Doi Journal 10.26739/2181-0796. – Тошкент, 2020. № 4. – Б. 81-87.
12. Ahmadova U.Sh. Pedagog nutqida perifrazalar // Бухоро давлат университети илмий ахборотлари. – Бухоро, 2020. – № 2. – Б. 142-146.
13. Аҳмадова У.Ш. Перифразы в узбекском языке // Крымскотатарская филология: проблемы изучения и преподавания. – Крым, 2020. – № 1(4). – С. 25-32.
14. Ahmadova U.Sh. Kitlesel bilgi araçlarında perifrazların ifade edilmesi // Filoloji ve Kültür Araştırmaları. Karabük, – 2020, – № 2. – Sah. 259-261.
15. Ahmadova U.Sh. Differentiation of periphrases by gender classification // Monografia pokonferencyjna science, research, development #32. 2. Berlin, ISBN: 978-83-66401-65-5. 30.08.2020 – 31.08.2020. – В. 149-151.
16. Аҳмадова У.Ш. Тиббиёт ходимлари нутқида перифразалар // «Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар» мавзусидаги Республика 20-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари 7-қисм. – Тошкент, 30.09. 2020. – Б. 37-38.
17. Ahmadova U.Sh. “Perifrazalarning sotsial xoslanishi”. Filol.f.nomz.diss.avtoref.: – Buxoro, 2021. – 54 b.

18. Ahmadova U.Sh. Perifrazalarning sotsial xususiyatlari. – Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2022. – В. 143.
19. Айтбоев Д. Ўрин-жой билдирган перифразаларда мотивлашув // Тил ва адабиёт таълими. 2006. № 4. – Б. 19-22.
20. Айтбоев Д. Конкрет шахсларни англатувчи перифразаларда мотивлашув // Тил ва адабиёт таълими. 2007, № 4. – Б. 34-39.
21. Айтбоев Д. Сарлавҳада перифразалар // Ўзбек тили ва адабиёти. 2007, № 4. – Б. 65-68.
22. Ҳожиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – 67-б.
23. Миртоҷиев М.М. Ўзбек тили лексикологияси ва лексикографияси. – Тошкент: Фан, 2000. – Б. 42.
24. Миртоҷиев М.М.Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Университет, 2007. – Б.185.
25. Qobilova A. Tibbiy perifrazalarning lingvomadaniy xususiyatlari. Filol.fan.nom.dissertatsiyasi. – Buxoro, 2022. – В. 155.
26. Қўнгурор Р. Ўзбек тили стилистикаси. Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – Б. 148.
27. Умиров И. Ўзбек тили перифразалари. Филол.фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 1996. – 23 б.
28. Шамсиддинов Ҳ. Перифраза хусусида айрим мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти. 1993, № 4. – Б. 29-35.
29. Шодиев С.Э. Парафразалар ва уларнинг деривацион хусусиятлари// Хорижий филология. 2017. № 2. – Б. 246-250.